XALQ DEPUTATLARI POP TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-yanvar VII-3-3-6-84-K/25 Pop tumani

Pop tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 28-fevraldagi Namangan viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-1959-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Pop tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil “ 9”avgustdagi № 6- sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Pop tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Pop tumani bilan chegaradosh boʻlgan Chust, To'raqo'rg'on va Mingbuloq tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi R.Toshboevga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi  SULTANOV AZAMJON MAXMUDOVICH

Xalq deputatlari Pop tumani
Kengashining
2025-yil 25-yanvardagi
VII-3-3-6-84-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyati Pop tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Qirgʻiziston Respublikasi, Toshkent viloyati hamda Pop tumani bilan chegara chiziqlari kesishgan joy, togʻ choʻqqisida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi (WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°23'48,928", sharqiy uzoqlik koordinatalari 70°29'40,384").

A dan B gacha Qirgʻiziston Respublikasi yerlari bilan 1-2-nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi.boshlangʻich 2- nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 41°07'22,050", sharqiy uzoqlik 70°56'40,362").

B dan D gacha Chust tumani yerlari bilan 2-43-nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy boʻyidan dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 748 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 1061 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 41°06'48,050", sharqiy uzoqlik 70°55'53,814").

3-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyni kesib oʻtadi va quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 3600 metr masofani oʻtib, qir adirliklar boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 41°05'11,403", sharqiy uzoqlik 70°57'10,221").

4-nuqtadan chegara qir adirliklar boʻyidan quruq soyga tutashadi, keyin quruq soyning chap qirgʻogʻi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 3758 metr masofani oʻtib, quruq soy qirgʻogʻida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 41°03'28,800", sharqiy uzoqlik 70°58'24,897").

5-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 2742 metr masofani oʻtib, quruq soy qirgʻogʻida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 41°02'08,309", sharqiy uzoqlik 70°58'38,919").

6-nuqtadan chegara chizigʻi quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 6924 metr masofada 4R-123 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 40°58'20,579", sharqiy uzoqlik 70°59'28,554").

7-nuqtadan chegara chizigʻi 4R-123 avtomobil yoʻlidan quruq soyga oʻtadi, keyin quruq soyning chap qirgʻogʻi bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1261 metr masofada quruq soyni kesib oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 106 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 40°57'48,499", sharqiy uzoqlik 70°59'59,013").

8 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1259 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'31,340", sharqiy uzunlik 71°00'27,806").

9 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1884 metr masofani oʻtib, qir adirliklar boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'43,637", sharqiy uzunlik 71°01'35,891").

10 – nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 497 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1549 metr masofani oʻtib, quruq soy qirrgʻogʻida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'06,110", sharqiy uzunlik 71°02'53,846").

11 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2002 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'59,010", sharqiy uzunlik 71°03'50,245").

12 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyning chap qirgʻogʻi bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 1572 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 328 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'42,984", sharqiy uzunlik 71°03'41,367").

13 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 696 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'30,707", sharqiy uzunlik 71°03'59,854").

14 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofada zovurni kesib oʻtadi, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 607 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr masofani oʻtib, Olmossoy soyi qirgʻogʻida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'21,380", sharqiy uzunlik 71°04'10,564").

15 – nuqtadan chegara chizigʻi Olmossoy soyining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1316 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'55,697", sharqiy uzunlik 71°05'10,108").

16 – nuqtadan chegara chizigʻi Olmossoy soyining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 116 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 248 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 87 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°56'14,743", sharqiy uzunlik 71°05'22,012").

17 – nuqtadan chegara chizigʻi Olmossoy soyining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1113 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'37,455", sharqiy uzunlik 71°05'28,637").

18 – nuqtadan chegara chizigʻi Olmossoy soyidan dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 494 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 43 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'28,297", sharqiy uzunlik 71°05'29,791").

19 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 884 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°54'55,627", sharqiy uzunlik 71°05'42,190").

20 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 43 metr masofada quruq soyga tutashadi, soʻng shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 166 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 6 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°54'58,820", sharqiy uzunlik 71°06'00,836").

21 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soydan tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy yoʻnalishda 85 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 84 metr masofani oʻtib, soʻng quruq soylarni kesib oʻtadi va toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1132 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'19,710", sharqiy uzunlik 71°06'25,512").

22 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3578 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'25,898", sharqiy uzunlik 71°06'32,501").

23 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1414 metr masofani oʻtib quruq soy boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°56'01,698", sharqiy uzunlik 71°06'53,406").

24 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyni, Gʻovasoyni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 687 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°56'50,515", sharqiy uzunlik 71°09'11,970").

25 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 92 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 675 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 162 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli koʻprigi boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'08,098", sharqiy uzunlik 71°10'07,787").

26 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1036 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 119 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'14,174", sharqiy uzunlik 71°10'35,991").

27 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 112 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 397 metr masofani oʻtib, 4R-112 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'05,103", sharqiy uzunlik 71°11'11,168").

28 – nuqtadan chegara chizigʻi 4R-112 avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 52 metr masofada yoʻlni kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 76 metr, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 956 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°57'03,594", sharqiy uzunlik 71°11'59,358").

29 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 253 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°56'50,421", sharqiy uzunlik 71°12'01,550").

30 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 420 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°56'03,645", sharqiy uzunlik 71°12'36,006").

31 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali ariqni kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 39 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnlalishda 363 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariq burilishida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'51,980", sharqiy uzunlik 71°12'41,090").

32 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 189 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan tomoni oʻzgarmagan holda 297 metr masofani oʻtib, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan yoʻnalishi oʻzgarmagan holda 346 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'27,430", sharqiy uzunlik 71°12'55,410").

33 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 465 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 60 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55'13,937", sharqiy uzunlik 71°13'05,928").

34 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 597 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 16 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°54'55,875", sharqiy uzunlik 71°13'14,231").

35 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda 2016 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab yoʻnalishi oʻzgarmagan holda 144 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiyt yoʻnalishda 52 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°53'47,616", sharqiy uzunlik 71°13'32,368").

36 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali Shimoliy Fargʻona kanalini koʻprik orqali kesib oʻtib, avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1103 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 907 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°53'00,053", sharqiy uzunlik 71°14'26,825").

37 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab janubiy yoʻnalishda 24 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 67 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy janubiy yoʻnalishda 42 metr masofani oʻtib, temiryoʻl boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'58,901", sharqiy uzunlik 71°14'23,889").

38 – nuqtadan chegara chizig i temir yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 797 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 263 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻyalab chap tomoni bilan umumiy janubiy-

sharqiy yo‘nalishda 139 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'56,664", sharqiy uzunlik 71°14'25,017").

39 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 230 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 615 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'58,408", sharqiy uzunlik 71°14'35,818").

40 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 345 metr masofani o‘tib, ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 226 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan yo‘nalishi o‘zgarmagan holda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 286 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'58,408", sharqiy uzunlik 71°14'35,818").

41 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1224 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'28,712", sharqiy uzunlik 71°16'46,953").

42 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 220 metr masofani o‘tib, Pop, Chust va Mingbuloq tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'22,482", sharqiy uzunlik 71°16'50,955").

D dan E gacha To‘raqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 43-44-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

43-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 164 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib o‘tib, keyin daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 97 metr masofani o‘tib, Pop, To‘raqo‘rg‘on va Mingbuloq tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°52'16,369", sharqiy uzoqlik 71°16'52,119").

E dan F gacha Mingbuloq tumani yerlari bilan 44-55-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

44-nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2270 metr, keyin umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1555 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2530 metr, so‘ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1782 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°50'57,231", sharqiy uzoqlik 71°13'47,684").

45 – nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5197 metr, keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 2131 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°51'01,799", sharqiy uzoqlik 71°11'40,338").

46 – nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 674 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°49'44,954", sharqiy uzoqlik 71°09'20,460").

47 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 19 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 567 metr masofani o‘tadi, so‘ngra qishloq ichki yo‘lidan zovurga o‘tib zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 128 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 370 metr masofada ariqqa o‘tadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy yo‘nalishda 150 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 171 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 144 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°49'01,016", sharqiy uzoqlik 71°09'34,044").

48 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 236 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, keyin umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1528 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ngra dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 30 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°49'19,461", sharqiy uzoqlik 71°08'28,728").

49 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini, Oxunboboyev kanalini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2874 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 32 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1604 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 56 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2841 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°45'51,191", sharqiy uzoqlik 71°06'02,556").

50 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini, zovurni kesib o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1815 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 635 metr, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda 1570 metr masofada Qoraqalpoq zovuriga tutashadi, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2149 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°46'45,408", sharqiy uzoqlik 71°08'44,036").

51 – nuqtadan chegara chizig‘i Qoraqalpoq zovuridan ariqqa o‘tadi va umumiy janubiy yo’nalishda ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1777 metr masofada ariqni kesib o‘tib zovurga o‘tadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 961 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 250 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 1084 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°45'41,191", sharqiy uzoqlik 71°10'14,111").

52 – nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1648 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 69 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1010 metr masofada zovurga tutashadi, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimga qarshi 939 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 57 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, so‘ngra janubiy-g’arbiy yo’nalishda zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 2943 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°43'30,752", sharqiy uzoqlik 71°07'36,952").

53 – nuqtadan chegara chizig‘i avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1902 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda 4024 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4595 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°43'42,042" , sharqiy uzoqlik 71°14'24,397").

54 – nuqtadan chegara chizig‘i Achchiqko‘l zovurni kesib o‘tib P-2 zovuriga o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1484 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda 6468 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2653 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3004 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 945 metr masofani o‘tib, Pop, Mingbuloq hamda Farg‘ona viloyatlari chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°41'54,959", sharqiy uzoqlik 71°23'23,552").

E dan F gacha Farg‘ona viloyati yerlari bilan 55 - 66 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

55-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1456 metr masofadan keyin chegara quruq chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr, g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr masofada dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 28 metr masofada dala tuproq yo‘li va beton ariqni kesib o‘tib, beton kanali bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga (shimoliy kenglik 40°41'38,898", sharqiy uzunlik 71°22'20,351")

56-nuqtadan chegara chizig‘i beton kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 300 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 602 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1104 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 846 metr va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4831 metr masofadan keyin chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofada kanalning chap tomondagi dyukeriga tutashadi, keyin beton kanalni suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 77 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashadi va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, so‘ngra chegara chizig‘i beton kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2764 metr masofadan keyin chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 60 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°38'36,061", sharqiy uzunlik 71°16'14,472")

